

O'ZBEKISTONDA IXTIYORIY SUG'URTAGA BO'LGAN ISHONCH

Xaydarova Durdon Shuxratjon qizi

*Guliston davlat universiteti qoshidagi raqamli iqtisodiyotva innovatsiyalar instituti “Buxgalteriya xisobi va moliya” kafedrasи, stajior-o'qituvchisi
durdona19991995@gmail.com*

Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi

*Guliston Davlat Universiteti talabasi
sevinchachilboyeva8@gmail.com*

To'xtayeva Moxinur To'raboy qizi

*Guliston Davlat Universiteti talabasi
mohinurtoxtayeva843@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda O'zbekistonda qanday sug'urta turlari borligi to'g'risida va ular qanday amal qilayotgani va majburiy va ixtiyoriy sug'urtaning amal qilinish darajalri to'grisida ma'lumotlar berilgan. Sug'urta O'zbekistonda qanday rivojlanganligi, bu borasida qanday ishlar amalga oshirilgnligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, tibbiy sug'urta, majburiy sug'urta, mulkiy sug'urta, hayot sug'urtasi, avtotransport sug'urtasi, risk

Аннотация. В данной статье представлена информация о том, какие виды страхования существуют сегодня в Узбекистане и как они реализуются, а также об уровнях внедрения обязательного и добровольного страхования. Как развивалось страхование в Узбекистане, какая работа проведена в этом направлении, объясняется.

Ключевые слова: страхование, медицинское страхование, обязательное страхование, страхование имущества, страхование жизни, страхование автотранспортных средств, риск.

Abstract. This article provides information about what types of insurance exist in Uzbekistan today and how they are implemented, as well as the levels of implementation of mandatory and voluntary insurance. How insurance has developed in Uzbekistan, what work has been done in this regard is explained.

Key words: insurance, medical insurance, compulsory insurance, property insurance, life insurance, motor vehicle insurance, risk.

Kirish

Sug'urta tabiiy ofatlar, har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamlari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Ilk sug'urta dengiz sug'urtasi bo'lган. Dengiz sug'urtasining mavjudligi miloddan avvalgi 300-yilda Rimdag'i qadimiy qonun bilan tan olingan. Keyinchalik sug'urtaning boshqa turlari va sug'urta bilan shug'ullanadigan tashkilotlar vujudga kelgan. Sug'urta inson ehtiyojlariga qarab, turlarga bo'linadi. Bular majburiy sug'urta, avtotransport sug'urtasi, hayot sug'urtasi, fuqarolik mas'uliyatini sug'urtalashdan iborat. Har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs o'ziga tegishli bo'lган mulkni sug'urtalasa, mulkiy sug'urtani amalga oshirgan hisoblanadi. Agar har qanday shaxs o'zining hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyatini sug'urtalasa, shaxsiy sug'urtani amalga oshirdan hisoblanadi. Transport egalarining fuqarolik javobgarligini, kredit oluvchilarning bank oldidagi kreditni o'z vaqtida qaytarish javobgarligini sug'urtalash, javobgarlik sug'urtasini amalga oshirgan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Yuqorida ta'kidlangadek, sug'urtaga insonlarning ishonchsizligi to'g'risida Jahongir Abdurasulov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining videokonferensiya tarzida o'tkazilgan yig'ilishida Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan yangi tahrirdagi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun loyihasi muhokama qilgan. Bu qonun loyiha sug'urta faoliyatini tartibga solish, xalqaro tajribalarni joriy etish va iste'molchilarini huquqlarini qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

X.M.Shennayev ham o'zining sug'urta to'g'risidagi kitobida sug'urtaning turlari, sug'urta faoliyati to'g'risida ma'lumot berib o'tgan. Unga ko'ra, sug'urta bozori

va uning infratuzilmasirespublika iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat ko'rsata boshlashi aytilgan. Moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan sug'urta ning milliy iqtisodiyot raqaobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni muhim ahamiyatga ega[1].

Shu sababli, O'zbekistonda sug'urta bozorini shakllantirish va uni rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Xususan, sug'urta tashkilotlariga soliq imtiyozlari berilmoqda. Natijada sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining soni ortib bormoqda. Hozirgi kunda kunda 30 dan ortiq sug'urta tashkilotlari davlat ro'yxatidan o'tgan[2].

Natijalar:

Bugungi kunda sug'urta munosabatlarini rivojlantirish asosida sug'urta bozorining ko'lамини kengaytirish, uzoq qishloq joylarida sug'urta tashkilotlari filial va bo'linmalarining ochilishi , sug'urta bozoriga yangi xizmatlar taklif etish , sug'urta qonunchiligini takomillashtirish dolzarb masalalar bo'lib qolmoqda.

Sug'urta tizimini rivojlantirish uchun sug'urta sohasini yaxshi biluvchi malakali kadrlarni tayyorlash uchun bugungi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, u o'zining qo'llanmasida sug'urta ishining nazariy va amaliy jihatlarini aks ettirgan.

Sug'urta amalga oshirish shakllariga ko'ra majburiy va ixtiyoriy sug'urta shakllariga bo'linadi.

Majburiy sug'urta - davlat su-g'urtasi shakllaridan biri, qonun asosida belgilangan shartlarga binoan, davlat sugurta tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Ixtiyoriy sug'urta – bu fuqarolar sug'urta turlaridan ixtiyoriy ravishdan sug'urtani amalga oshirishi hisoblanadi[3].

O'zbekistonda ham sug'urtaning deyarli barcha turlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng sug'urta organlari tashkil etildi. 1993-yil 6-may kuni " Sug'urta to'g'risida"gi qonun qabul qildi. Ilk sug'urta kompaniyasi ham aynan shu qonundan so'ng tashkil etilgan "O'zagrosug'urta" kompaniyasi. Keyinchalik "Madad", "Kafolat", "O'zbekinvest" kompaniyalari ham tashkil etilgan va bu kompaniyalari sug'urtaning barcha sug'rtta turlari bo'yicha sug'urtani amalga oshirishadi. O'zbekistonda ham sug'urtani amalga oshrish majburiy

va ixtiyoriy hisoblanadi va bugungi kunga kelib O'zbekistonda majburiy sug'urtani amalga oshirish yuqori ko'rsatkichni ko'rsatadi. Ixtiyoriy sug'urta esa majburiy sug'urtaga nisbatan pastroq ko'rsatkichni ko'rsatadi. Bunga asosiy sabab fuqarolar orasida sug'urta to'g'risida to'liq informatsiya va savodxonlik yetarli emas. Fuqarolar sug'urta shartnomasiga ega bo'lishgandan so'ng qanday imkoniyatlarga ega ekanliklari to'g'risida axborotlarga to'liq ega emas. Shuning uchun ham fuqarolar ixtiyoriy ravishda o'zlarini turli xil risklardan moliyaviy himoyalay olishmaydi. Aynan sug'urtaning insonlar o'rtasida ishonchszligini yuqoriligi to'g'risidagi mavzuda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jahongir Abdurasulov o'zining nutqida aytib o'tgan va bu bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi va nazorat qilinishini ta'kidlagan[4].

2022-yilning yanvar-avgust oylarida sug'urta xizmatlari hajmi 3701,6 mlrd.. so'mni tashkil etdi

Hududlar bo'yicha sug'urta xizmatlari hajmi, mlrd. so'm:[5]

O'zbekiston Respublikasi	3 701,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	200,6
Andijon	105,8
Buxoro	101,1
Jizzax	45,0
Qashqdaryo	91,6
Navoiy	78,2
Namangan	102,1
Samarqand	93,3
Surxondaryo	52,2
Sirdaryo	47,6
Toshkent	106,0
Farg'ona	113,9
Xorazm	85,4
Toshkent shahri	2 478,8

Muhokama

Yuqorida ko'rsatilgan jadvalda 2022-yildagi sug'urta xizmatlarining hajmi keltirilgan, bunda eng katta hajmi Toshkent shahrida **2 478,8** mlrd. so'm darajasida qayd etgan. Bunga sabab Toshkent shahrida sug'urta kompaniyalarining asosiy ofislari joylashgan, aholi uchun sug'urta to'g'risida yetarli axborotlar reklamalar orqali yetkazilgan. Aholi orasida sug'urta haqida tushuncha mavjud va Toshkent shahrida juda ko'p xususiy tashkilotlar ko'pligi ham sabab bo'la oladi. Toshkent shahrida juda ko'p mamlakatdan korxona va tashkilotlar filiali joylashgan, biz bilamiz rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmati YaIM da sezilarli darajada, shuning uchun ham sug'urta xizmati Toshkent shahrida yuqori ko'rsatkichni qayd etgan.

Xulosa va takliflar

Bu maqolani yozish natijasida O'zbekistonda ixtiyoriy sug'urtaga bo'lган ishonchni oshrish bir nechta takliflar yuzga keldi.

Bular:

1. Sug'urtaga bo'lган insonlarning ishonchini oshirish uchun fuqarolar o'rtaida turli yig'inlar tashkil qilish va ularga sug'urta to'g'risidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish
2. Onlayn xizmat turlarini qulaylashtirish va birinchi marotaba sug'urtani amalga oshirayotgan fuqarolarga turli xil imtiyozlar ajratish.
3. Sug'urta dalolatnomasiga ega bo'lishni qulaylashtirish va fuqarolarga to'liq summalarda ma'lumotlarni berib berishni yo'lga qo'yish
4. Sug'urta kompaniyalari ixtiyoriy sug'urtani amalga oshirish jarayonida risklarni keng ko'lamma qamrab olish.
5. Sug'urta kompaniyalari "O'zbekinvest" kompaniyasi kabi elektron sug'urta summasini hisoblaydigan hisoblagich joriy etish va uni yanada takomillashtirish chora tadbirlarini qo'llash

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Sug'urta ishi" X.M. Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'.Kenjayev o'quv qo'llanma.
2. "Sug'urta ishi" D.D.Alimova, D.X.Jumayeva o'quv qo'llanma
3. "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti" I. Abdurahmonov, M.Abduraimova, N.Abdullayev darslik

4. “Sug’urta biznesi” I.Kenjayev, M.Abduraimova, N.Abdullayev о’quv qo’llanma
5. Chorshanbiyevich, N. F. (2023). IMPACT OF COGNITIVE-PSYCHOLOGICAL BARRIERS ON THE IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL INNOVATION. World Bulletin of Social Sciences, 26, 75-78.
6. Марупова , М. Х., Кубаев , А. . С., & Хазратов , А. И. (2022). УСОВЕРШЕНСТВОВАТЬ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ БОЛЕВОЙ ДИСФУНКЦИИ ВИСОЧНО-НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(5), 164–167. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1632>
7. Chorshanbiyevich, N. F. Pedagogical Profilactics of Cognitive-psychological Barriers That Arise in the Process of Innovative Activity. JournalNX, 47-49.
8. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2015). INTERNET VOSITASIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 51, pp. 16-18). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
9. Хоитметов, У. А. (2021). Интегрирование нагруженного модифицированного уравнения Кортевега-де Фриза. Matematika Instituti Byulleteni Bulletin of the Institute of Mathematics Бюллетень Института, 4(3), 97.
10. Норбоев, Ф. (2023). KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).
11. <https://stat.uz/>